


2021- yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 26 250,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.




**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

| | <i>Mird. so'm</i> | | <i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i> |
|--|-------------------|------------------|--|
| | <i>2020- yil</i> | <i>2021- yil</i> | |
| I. YAHM, jami | 21 881,0 | 26 250,7 | 107,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 20 433,3 | 24 477,4 | 107,4 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 1 447,7 | 1 773,3 | 107,8 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 20 433,3 | 24 477,4 | 107,4 |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 6 022,5 | 7 037,7 | 103,7 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 7 180,0 | 8 606,4 | 108,1 |
| sanoat | 5 433,9 | 6 526,3 | 107,4 |
| qurilish | 1 746,1 | 2 080,1 | 110,5 |
| xizmatlar | 7 230,8 | 8 833,3 | 109,7 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 011,2 | 1 208,7 | 107,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 176,0 | 1 498,4 | 120,5 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 5 043,6 | 6 126,2 | 107,7 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 13 558,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,0 % ga yuqoridir.

2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 93,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 28,8 % ni, sanoat tarmog'i 26,7 % ni, qurilish 8,5 % ni va xizmatlar sohasi 36,0 % ni tashkil qildi.


2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

| | 2020- yil | 2021- yil |
|---|------------------|------------------|
| I. YAHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 93,4 | 93,2 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 6,6 | 6,8 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
| <i>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i> | 29,5 | 28,8 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 35,1 | 35,2 |
| sanoat | 26,6 | 26,7 |
| qurilish | 8,5 | 8,5 |
| xizmatlar | 35,4 | 36,0 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 4,9 | 4,9 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,8 | 6,1 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 24,7 | 25,0 |

**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**



2020- yil




2021- yil

Yalpi qo'shilgan qiymat

Mahsulotlarga sof soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,8 %), sanoatda – 107,4 % (26,7 %), qurilishda – 110,5 % (8,5 %), xizmatlar sohasida – 109,7 % ni (36,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,4 % (4,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 120,5 % (6,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,7 % dan (25,0 %) iborat bo'ldi.

**2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan % da)**




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2020- yilda – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2020- yilda – 0,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2020- yilda – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,3 f.p. (2020- yilda salbiy 0,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,5 f.p. (2020- yilda – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.

2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021-yilda YAHM deflyatori indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 111,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,7 % va sanoatda – 111,9 % qayd etildi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 56,4 %ni tashkil qildi (2020- yilda – 58,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

